

AHOLI NIKOH VA OILAVIY TARKIBINING GEODEMOGRAFIK VAZIYATGA TA'SIRI

¹Xodjaeva G.A., ²Maxmudov B.X., ²Xalmuradov Sh. O.

¹Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

²Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Kirish. XX asr boshlarida Andijon viloyatida aholining turmush darajasi ancha past bo'lib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi birmuncha past edi. Erkaklarning ayollarga nisbatan ro'li ancha yuqori bo'lib kelgan. Ayollarni jamiyatda va oilada tutgan o'rni ham ancha past darajada bo'lgan. O'sha vaqtda onalar va bolalarni muhofaza qilish va tibbiy xizmat deyarli yo'q edi. Bu jarayonlar XX asr boshlarida, aholini tabiiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada o'sha vaqtda tug'ilish va o'lim sur'atlari yuqori bo'lib, tabiiy o'sish past darajada edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda aholishunoslik, oila demografiyasi, shaharlar va aholi geografiyasi, mehnat va aholi bandligi masalalari M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, X.Salimov, E.A.Axmedov, Q.X.Abduraxmonov, O.B.Ata-Mirzayev, A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, B.X.Umurzaqov, G.R.Asanov, Z.Raimjonov, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva, R.B.Qodirov, M.A.Kadirov, O.L.Muhamedov, N.J.Embergenov, O.I.Sherxolov, Z.A.Temirov, L.Z.Ibragimov, H.A.Abdulvaliyev, X.Qosimov ishlarida keltirilgan. Andijon viloyati aholisining geografik xususiyatlari M.Mamajonov, R.Qodirov, Z.Temirov, H.Abdulvaliyev, X.Qosimovlar tomonidan ancha mukammal o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Andijon viloyatida aholini o'sishi, asosan, tabiiy o'sish hisobiga ortmoqda. 1989-yili aholini tabiiy o'sishi 2.75 foiz, 1999-yili 1.47 foiz, 2005-yili 1.5 foiz, 2010-yili 1.8 foiz, va 2015-yilda 1,9 foizga, 2020-yili 1.9 foizga, 2025-yili 1.8 foizga teng bo'ldi. Statistik malumotlardan ko'rinib turibdiki 1989-yildan 2025-yilgacha aholini tabiiy o'sishi kamaygan. Nikoh erkak bilan ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solib turadigan o'zaro hamda bolalariga nisbatan munosabatlari shaklidir. Nikoh o'z evolyutsiyasiga, turlariga ega bo'lgan sotsial jarayondir. Nikohlanish jarayoni turli xil mamlakatlarda o'ziga xos bo'lib, har bir millatning milliy qadriyatlarini aks ettiradi. U insoniyat ijtimoiy taraqqiyotining turli davrlarida har xil ko'rinishlarga ega bo'lib, o'sha davlatlarning qonunlari asosida asrlar davomida o'zgarib, takomillashib borgan. Natijada, o'rtacha turmush qurish jahonning turli mamlakatlarida 12-14 yoshdan to 21-22 yoshgacha belgilangan, ba'zi davlatlar bundan mustasno.

Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda har yili o'rtacha 250-300 mingga yaqin nikoh qayd etiladi. 2000-2025 yillar oralig'ida nikohlar soni 1,8 baravarga ko'paydi, ayni paytda mamlakatimiz dunyodagi oilalar eng kam ajralayotgan davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi. 2000–2025 yillar davomida O'zbekistonda nikohlar soni umumiy jihatdan oshib borgan, ayniqsa 2010–2020 yillarda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan. Biroq, 2025-yilda ko'plab hududlarda nikohlar sonining kamayishi kuzatilgan. Bu farqlar hududlarning demografik holati, aholi soni va urbanizatsiya darajasi bilan bog'liq. Eng yuqori nikoh ko'rsatkichlari Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Andijon viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Aholi sonining ko'pligi asosiy omil hisoblanadi. Namangan, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari esa o'rtacha ko'rsatkichli hududlarni tashkil etmoqda. Bu hududlarda nikohlar soni o'sib borgan bo'lsa-da, 2025-yilda ayrim pasayishlar kuzatilgan. Sirdaryo, Navoiy, Jizzax eng past ko'rsatkichga hududlar hisoblanib, ushbu hududlarda aholi sonining nisbatan kamligi nikohlar soniga ham ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, mamlakatimiz poytaxtida nikohlar soni muntazam oshib borgan. Urbanizatsiya va ichki migratsiya bunga sabab bo'lgan.

Shu bilan bir qatorda Andijon viloyatida nikohlanganlar soni Respublika bo'yicha jami nikohlanganlar sonidagi salmog'i ham o'sib bordi. Jumladan, 2000-yilda viloyatda nikohdan o'tganlar Respublikadagi nikohlanganlarni 8 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilda 8.6 foizni tashkil etdi. Ushbu yillar mobaynida Andijon viloyatidagi nikohlanganlar salmog'i ortgan. Shu jihatdan nikohlanganlar soni ha yil sayin ortib bordi. Bu holat esa viloyatda nikohlanish koeffitsiyentini o'rganishni naqadar dolzarb vazifa qilib qoyadi.

Andijon viloyatida 2010-yilda jami 27947 ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich biroz oshib, 28 311 taga yetgan, 2020-yilda nikohlar soni 27 725 ta bo'lib, biroz kamaygan. 2025-yilda esa keskin pasayib, 23 045 tani tashkil etgan. Bu holat so'nggi yillarda nikohlar sonining kamayish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Bunga iqtisodiy omillar, yoshlarning kechroq turmush qurishi, migratsiya, ijtimoiy qarashlarning o'zgarishi kabi sabablar ta'sir qilishi mumkin. Qayd etilgan nikohlar soni shahar joylarida 11,6 mingni (50,4 %), qishloq joylarida 11,4 mingni (49,6 %) tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval. Andijon viloyatida jami tuzilgan nikohlar soni

Hududlar	2010	2015	2020	2025
Andijon viloyati	27947	28311	27725	23045
Andijon shahri	3670	3668	3793	3188
Xonobod shahri	369	323	301	231
Oltinko'l tumani	1537	1629	1672	1402
Andijon tumani	2466	2357	2586	2084
Baliqchi tumani	1762	1839	1771	1566
Bo'ston tumani	633	601	601	618
Buloqboshi tumani	1218	1083	1147	993
Jalaquduq tumani	1419	1945	1548	1307
Izboskan tumani	2360	2156	2147	1768
Ulug'nor tumani	567	504	452	380
Qo'rg'ontepa tumani	1876	1751	1737	1375

Asaka tumani	3201	3001	2944	2320
Marxamat tumani	1622	1533	1559	1276
Shaxrixon tumani	2300	2897	2719	2322
Paxtaobod tumani	1792	1975	1759	1477
Xo'jaobod tumani	1155	1049	989	738

Jadval Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Viloyat markazida Andijon shahrida nikohlar soni yuqori bo'lib qolmoqda. 2020-yilgacha o'sish kuzatilgan, ammo 2025-yilda kamaygan. Xonobod shahri eng kam nikoh qayd etilgan hududlardan biri hisoblanadi. Aholi sonining kamligi bunga asosiy sabab bo'lishi mumkin. Viloyatdagi eng yuqori nikoh ko'rsatkichga ega hududlardan biri Asaka tumani hisoblanadi. Bunga sanoat rivojlanganligi va aholi zichligi ta'sir qilgan. Shahrixon va Izboskan tumanlarida yillar davomida asta-sekin kamayish kuzatilgan. Masalan, 2015-yilda 2897 ta nikoh bilan yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. 2025-yilda ham 2322 ta bilan yuqori o'rinda qolgan. Oltinko'l, Baliqchi, Qo'rg'ontepa, Paxtaobod, Jalaquduq tumanlarida nikohlar soni o'rtacha darajada. Bu hududlarda ayrim yillarda o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya pasayishga yo'nalgan. Ulug'nor, Bo'ston, Xo'jaobod tumanlarida eng past ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bu hududlarda aholi sonining kamligi va migratsiya omili nikohlar soniga ta'sir qilgan. Demak, tahlillarga ko'ra, Andijon viloyatida ayrim hududlarida vaqtinchalik o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, 2025-yilda deyarli barcha tuman va shaharlarda kamayish qayd etilgan. Eng yuqori nikoh ko'rsatkichlari Asaka, Shahrixon va Andijon tumanlarida, eng past ko'rsatkichlar esa Xonobod shahri va Ulug'nor tumanida kuzatilgan.

2-jadval. Andijon viloyatida tuzilgan nikohlarni shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

Hududlar	Shahar		Qishloqlar	
	2010	2025	2010	2025
Andijon viloyati	13108	11607	14839	37618
Andijon shahri	3670	3188	0	0
Xonobod shahri	328	231	41	0
Oltinko'l tumani	579	682	958	1540
Andijon tumani	1601	1675	865	1431
Baliqchi tumani	322	324	1440	4191
Bo'ston tumani	167	230	466	1129
Buloqboshi tumani	391	435	827	1997
Jalaquduq tumani	611	485	808	2725
Izboskan tumani	765	517	1595	4366
Ulug'nor tumani	49	56	518	731
Qo'rg'ontepa tumani	693	627	1183	2816
Asaka tumani	1064	596	2137	6059
Marxamat tumani	840	915	782	1278
Shaxrixon tumani	867	759	1433	5079
Paxtaobod tumani	584	561	1208	2781
Xo'jaobod tumani	577	326	578	1495

Jadval Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Andijon viloyatida nikohlarning hududiy taqsimlanishida qishloq hududlari ustunlik qilmoqda. 2010–2025 yillar davomida shaharlarda nikohlar soni kamaygan bo'lsa, qishloqlarda keskin o'sish kuzatilgan. Ayniqsa Asaka, Shahrixon, Izboskan va Baliqchi tumanlari qishloq hududlarida yuqori nikoh ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi.

2025-yilda qishloq hududlarida nikohlar soni sezilarli oshgan. Shahar hududlarida esa aksariyat joylarda kamayish kuzatilgan. Bu holat urbanizatsiya, migratsiya va yoshlarning kechroq oila qurishi bunga sabab bo'lishini ko'rsatadi. Shuningdek, qishloq aholisi ulushining yuqoriligi va qishloqlarda an'anaviy oilaviy qadriyatlarining saqlanib qolayotgani bilan ham izohlanadi. Ayrim tumanlarda urbanizatsiya kuchaygan bo'lsa-da, nikohlarning asosiy qismi hali ham qishloqlarda tuzilmoqda. Andijon viloyatida aholining birinchi nikohga kirish o'rtacha yoshi Respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lishi bilan bir qatorda nikohga kirish yoshi ortib borishi ham sezilarli darajada ortib borgani kuzatildi. Aholining birinchi nikohga kirish yoshi ayollar va erkaklarda farq qiladi. Andijon viloyatida 2025-yilda ilk nikohga kirish yoshi erkaklarda 26,1 yoshni va ayollarda 22,1 yoshni tashkil etdi, yoki erkaklar va ayollarning o'rtacha nikohga kirish yoshi o'rtasidagi farq 4 yoshni tashkil etdi. Andijon viloyatida erta nikohlanish ya'ni balog'at yoshiga yetib ulgurmagan, o'smirlik davrida, jinsiy tomonlama to'liq shakllanmagan yigit-qizlarning oila qurishi soni 2010-yilda 1032 tani, 2015-yilda bu ko'rsatkich 590 taga, 2019-yilda esa 268 taga tushgan. 2020-yildan boshlab keskin kamayib, atigi 4 ta holat qayd etilgan. 2021–2024-yillarda ko'rsatkich juda past darajada saqlanib qolgan (3–7 ta oralig'ida). Bu holat viloyatda davlat va jamoatchilik nazoratining ortganini, qonun bilan cheklanganini shuningdek, aholining huquqiy savodxonligi oshgani, qizlar ta'limiga e'tibor kuchaygani ko'rsatadi. 2010-yilda Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichlar Andijon shahri, Shahrixon, Asaka va Andijon tumanlarida qayd etilgan. Bu hududlarda aholi sonining ko'pligi va an'anaviy qarashlar ta'siri bo'lgan. 2019-yilgacha bosqichma-bosqich kamayish, 2020-yildan keskin kamayish dinamikasi kuzatilgan. Ayrim shahar (Andijon) va tumanlar (Shahrixon, Asaka) tumanlarida nolga tushgan. Bu 2020-yildan boshlab profilaktika ishlari kuchayganini ko'rsatadi.

Aholi demografik tavsiflarini o'rganishda o'rtacha nikohga kirish yoshi bilan birgalikda birinchi farzand ko'rish yoshi ham alohida o'rganiladi. Aksariyat hollarda birinchi farzand ko'rish yoshi nikohga kirish yoshidan bir yosh katta hisoblanadi. Andijon viloyatida ham birinchi farzand ko'rish yoshi birinchi nikohga kirish oshidan bir yosh katta deb aytilsa mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, vitol tavsiflarni o'rganishda birinchi farzand ko'rish yoshi deb alohida o'rganish muhim. Jahonning ko'plab g'arb mamlakatlarida bu holatda katta tafovutlarni kuzatish mumkin. Ayrim mamlakatlarda nikohga kirish yoshi va birinchi farzand ko'rish yoshi o'rtasida 1 yoshdan katta farq kuzatilsa, nikohga kirish yoshi ortib borgan sari ayrim mamlakatlarda (AQSH) birinchi farzand ko'rish yoshi nikohga kirish yoshidan kichik bo'ladi. Andijon viloyati aholisi tuman va shaharlarda aholi soni va tabiiy o'sishidagi bunday nomutanosibliklar ilk nikohga kirish yoshi, birinchi farzand ko'rish yoshi va oiladagi o'rtacha farzandlar sonida ham hududiy tafovutlar yuzaga kelishiga olib keladi. Jumladan, viloyat tuman va shaharlarida ilk nikohga kirish yoshida hududiy tafovutlarni kuzatish mumkin. Andijon viloyatida erkaklar 2010-yil o'rtacha 25,6 yoshda, 2024-yil 26,1 yoshda, ayollar esa 2010-yil 21,9 yoshda 2024-yil esa 22,3 yoshda nikohga kirishi qayd etilgan. Demak, viloyatda birinchi nikoh yoshi biroz oshgan. Bu yoshlarning uzoqroq ta'lim olishi, kasb va ish faoliyatiga e'tibor kuchayishi, nikohga mas'uliyatli yondashuvi bilan izohlanadi.

Demak, yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki Andijon viloyatida 2010–2024 yillarda birinchi nikohga kirish yoshi oshgan. Erkaklar ayollarga nisbatan kechroq turmush qurmoqda. Shahar hududlarida nikoh yoshi qishloq hududlariga qaraganda yuqoriroq. Xonobod shahri va Oltinko'l tumanida eng yuqori nikoh yoshi qayd etilgan. Nikoh yoshining oshishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim darajasi o'sayotganini ko'rsatadi. Andijon viloyatida ayollarning birinchi farzand ko'rish yoshi 2025-yilda o'rtacha 23,8 yoshni tashkil etib, protegenetik interval (nikohga kirgandan birinchi farzand ko'rguncha bo'lgan davr) 1,1 yoshga to'g'ri keldi (3-jadval).

3-jadval. Andijon viloyatida ayollarning nikohga kirish va birinchi farzand ko'rish yoshi

Yillar	2010	2025
Ayollarning o'rtacha nikohga kirish yoshi	21,9	22,3
O'rtacha birinchi farzand ko'rish yoshi	23,1	23,4
Protegenetik interval	1,2	1,1

Jadval Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida 20 yoshgacha ayollarda tug'ilgan bolalar soni 52 mingtani tashkil etgan holda ushbu ko'rsatkich, Andijon viloyatiga 5,7 mingta to'g'ri keladi. Eng yuqori ko'rsatkich Samarqand, eng pasti esa Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi.

4-jadval. Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti

Hududlar	Jami		Shahar		Qishloq	
	2010	2024	2010	2024	2010	2024
O'zbekiston Respublikasi	2,34	3,35	2,08	3,23	2,62	3,47
Andijon viloyati	2,47	3,52	2,26	3,48	2,71	3,58

Jadval Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

O'zbekiston Respublikasida tug'ilishning yig'indi koeffitsienti ya'ni bir ayolga to'g'ri keladigan bolalar soni 2010-yilda 2,34 ga, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 3,35 ga yetgan. Demak, respublika bo'yicha tug'ilish darajasi oshgan va oilalarda farzandlar soni ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2010–2024 yillarda tug'ilishning yig'indi koeffitsienti ham respublika, ham Andijon viloyatida oshgan. Andijon viloyatidagi ko'rsatkichlar barcha yo'nalishlarda respublika o'rtachasidan yuqori. Qishloq aholisi orasida tug'ilish darajasi shaharga qaraganda yuqoriroq saqlanib qolgan. 2024-yilda Andijon viloyati qishloq aholisi eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan - 3,58. Bu holat viloyatda demografik o'sish sur'ati yuqoriligini ko'rsatadi.

2010-2025 yillar davomida ajralishlar soni qariyb 3,6 baravar oshgan. Bu oilaviy munosabatlarda muammolar kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Ajralishlar sonining oshishiga iqtisodiy qiyinchiliklar, migratsiya, oilaviy kelishmovchiliklar, yoshlarning mustaqil qaror qabul qilishi, ayollarning ijtimoiy faolligi ortishi kabi omillar ta'sir qilgan. Viloyatda eng yuqori ajralish ko'rsatkichi Andijon shahriga (869ta) to'g'ri keladi. Shaharlarda urbanizatsiya va turmush tarzi o'zgarishlari oilaviy barqarorlikka ta'sir qilishi olimlar tomonidan aniqlangan. Asaka, Andijon, Izboskan va Shahrixon tumanlarida ham ajralishlar soni sezilarli oshgan. Eng past ko'rsatkichlar Xonobod shahri va Ulug'nor tumanida qay etilgan. Bu hududlarda ajralishlar soni boshqa hududlarga nisbatan pastroq saqlanib qolgan.

Demak, yuqoridagi jadval ma'lumotlari Andijon viloyatida oilaviy ajralishlar soni ortib borayotganini ko'rsatadi. Eng yuqori ko'rsatkichlar Andijon shahri, Asaka, Andijon va Izboskan tumanlarida kuzatilgan. Shaharlarda ajralish darajasi qishloq hududlariga nisbatan yuqoriroq. Ajralishlarning oshishi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar bilan bog'liq. Oilalarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash va nikoh barqarorligini ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirishni talab qiladi.

Andijon viloyatida nikohdan ajralishlarning 57,7 foizi shahar joylarga (2,9 ming) 42,3 foizi qishloq joylariga (2,1 ming) to'g'ri kelgan. Ajralishlar soni 2010 va 2025-yillarda Andijon viloyati hududlari bo'yicha shahar va qishloq aholisi kesimida ham shaharlarda, ham qishloqlarda sezilarli oshganini ko'rsatadi.

Shaharlarda 2010-yil 856 ta, 2025-yil 2873 ta, qishloqlarda 2010-yil 512 ta, 2025-yil 2108 ta ajralishlar qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, shaharlarda ajralishlar soni yuqoriroq, ammo qishloq hududlarida ham keskin o'sish kuzatilgan. Bu oilaviy munosabatlardagi muammolar nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarda ham kuchayib borayotganini bildiradi.

Viloyatdagi eng yuqori ajralish ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri keladi. Bunga urbanizatsiya, hayot sur'atining tezlashuvi, iqtisodiy bosim, mustaqil turmush tarzining kuchayishi ta'sir qilgan. Andijon, Marhamat, Asaka, Oltinko'l tumanlarida ham shaharlardagi ajralishlar soni sezilarli oshgan. Qishloqlardagi eng yuqori ko'rsatkichlar Asaka, Izboskan, Shahrixon, Baliqchi hududlarda qishloq aholisi orasida ajralishlar soni ancha ko'paygan. Bu holat tashqi migratsiya, iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaviy kelishmovchiliklar, an'anaviy oilaviy munosabatlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Demak, Andijon viloyatida 2010–2025 yillarda ajralishlar soni barcha hududlarda oshgan. Shaharlarda ajralishlar qishloqlarga qaraganda yuqoriroq bo'lsa-da, qishloqlarda ham o'sish sur'ati kuchli. Eng katta o'sish Andijon shahri, Asaka, Izboskan va Shahrixon hududlarida kuzatilgan. Qishloq hududlarida oilaviy ajralishlarning ko'payishi an'anaviy oilaviy munosabatlarda ham o'zgarish bo'layotganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. XX asr boshlarida Andijon viloyatida nikoh darajasi past, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi esa sust bo'lib, ayniqsa ayollar va bolalarning sog'lig'i yetarli darajada ta'minlanmagan. Bu holat aholining tabiiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yuqori tug'ilish va o'lim sur'atlariga, natijada past tabiiy o'sishga olib kelgan. So'nggi yillarda Andijon viloyatida nikoh va ajralish ko'rsatkichlari o'zgarib bormoqda. 2010-2025 yillar oralig'ida nikohlar soni kamaygani kuzatilgan, ayniqsa 2025-yilda keskin pasayish mavjud. Bunda yoshlarning kechroq turmush qurishi, iqtisodiy omillar, migratsiya va ijtimoiy qarashlarning o'zgarishi ahamiyatga ega.

Nikohlarning hududiy taqsimlanishida qishloq hududlari ustun bo'lib, shaharlarda nikohlar soni kamaygan. Qishloqlarda esa an'anaviy oilaviy qadriyatlarining saqlanib qolishi sababli nikohlar ko'proq qayd etilmoqda. Umuman olganda, Andijon viloyatida oilaviy va nikoh jarayonlari, shuningdek ajralishlar demografik vaziyatni shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar aholi demografiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tahlillar hududning demografik kelajagini rejalashtirish va samarali demografik siyosat olib borishda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413#-6605157>
2. Abduvaliyev X.A. O'zbekistonda aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishning geografik jihatlar. Geogr. fan. dok. Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. Samarqand, 2025. - 48 b
3. Qosimov X.S. Andijon viloyati shaharlari rivojlanishining iqtisodiy-geografik jihatlar. Geogr. fan. bo'y. falfasa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. - Nukus, 2025. - 48 b
4. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot: tanlangan asarlar. Monografiya. –Toshkent: "Kamalak". 2013.
5. Temirov Z.A. Farg'ona vodiysi viloyatlarida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Geogr. fan. bo'y. falfasa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref.-T., 2022
6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

Aholi nikoh va oilaviy tarkibining geodemografik vaziyatga ta'siri

Rezyume. Mazkur maqolada geodemografiya bo'yicha va uning muhim tarkibiy qismi hisoblangan nikoh, nikohdan ajralish va oilaviy tarkibining aholi bilan bog'liq demografik jarayonlarga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyati olingan. Sababi Andijon viloyati mamlakatimizda o'ziga xos demografik vaziyat va salohiyatga ega hamda aholining yosh-jins tarkibida o'ziga xos o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlarni o'rganish viloyatda demografik vaziyatning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq bilib olish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: demografiya, geodemografiya, aholi yosh-jins tarkibi, turmush darajasi, nikoh, ajralish

Влияние брачно-семейной структуры населения на геодемографическую ситуацию

Резюме. В данной статье анализируется влияние таких важных компонентов геодемографии, как брак, развод и состав семьи, на демографические процессы. Объектом исследования выбрана Андижанская область. Это обусловлено тем, что Андижанская область обладает специфической демографической ситуацией и потенциалом в нашей стране, а в её возрастно-половой структуре населения происходят характерные изменения. Изучение этих изменений позволяет глубже понять текущее состояние демографической ситуации в регионе и выявить закономерности её дальнейшего развития.

Ключевые слова: демография, геодемография, половозрастной состав населения, уровень жизни, брак, развод

The impact of marriage and family structure of the population on the geodemographic situation

Resume. This article analyzes the impact of marriage, divorce and family structure, which are important components of geodemography, on demographic processes related to the population. The Andijan region was taken as the object of research. This is because the Andijan region has its own demographic situation and potential in our country, and there are specific changes in the age and sex composition of the population. The study of these changes provides an opportunity to gain a deeper understanding of the current state of the demographic situation in the region and the laws of its future development.

Key words: demography, geodemography, age-sex composition of the population, standard of living, marriage, divorce